



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarida faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

XALQARO INVESTITSİYALAR VA KAPITAL OQIMLARI

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИНВЕСТИЦИИ И ДВИЖЕНИЕ КАПИТАЛА

INTERNATIONAL INVESTMENTS AND CAPITAL FLOWS

Tajiboyev Suxbatillo Obidovich

O‘zMU, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlarining nazariy asoslari, turlari, xususiyatlari hamda zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi roli chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va portfel investitsiyalarining iqtisodiy ta‘siri, xalqaro investitsiyalarni tartibga solish mexanizmlari hamda investitsiya muhitini shakllantiruvchi omillar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro investitsiyalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalari, kapital oqimlari, xorijiy kapital.

В данной Тезисе представлен углубленный анализ теоретических основ, типов, характеристик и роли международных инвестиций и потоков капитала в современной мировой экономике. В исследовании рассматривается экономическое воздействие прямых иностранных инвестиций и портфельных инвестиций, механизмы регулирования международных инвестиций и факторы, формирующие инвестиционный климат.

Ключевые слова: международные инвестиции, прямые инвестиции, портфельные инвестиции, потоки капитала, иностранный капитал.

This thesis provides an in-depth analysis of the theoretical foundations, types, characteristics, and role of international investment and capital flows in the modern world economy. The study examines the economic impact of foreign direct investment and portfolio investment, mechanisms for regulating international investment, and factors shaping the investment climate.

Keywords: international investments, direct investments, portfolio investments, capital flows, foreign capital.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari global iqtisodiy integratsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayishi kapital oqimlarining hajmi va yo‘nalishlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Xalqaro investitsiyalar mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, yangi texnologiyalarning transferini ta‘minlaydi, ish o‘rinlarini yaratadi va makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish maqsadida investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu chora-tadbirlar hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, iqtisodiy rivojlanishi nisbatan past bo‘lgan hududlarni qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotning real sektorida xorijiy kapital ishtirokini kengaytirishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, investitsiyalarni rag‘batlantirish doirasi kengaytirilib, qishloq xo‘jaligi sohasi ham ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiritildi. [1]

Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali o‘z iqtisodiyotlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishga harakat qilmoqdalar. Kapital oqimlari esa jahon moliyaviy bozorlarining integratsiyalashuvini ta‘minlab, resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kapital oqimlarining beqarorligi moliyaviy inqirozlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni ham keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xalqaro investitsiyalar mamlakatlar o‘rtasida kapital resurslarining harakati sifatida talqin qilinib, ularning iqtisodiy o‘shish, texnologik yangilanish va ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda Sharipov N. tomonidan yozilgan “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” darsligida xalqaro investitsiyalarning mohiyati, shakllari va ularning milliy iqtisodiyot rivojiga ta’siri nazariy jihatdan asoslab berilgan. Xorijiy adabiyotlarda, xususan, V.B. Mantusov va N.D. Eriashvili tahriri ostida chop etilgan “Мировая экономика и международные экономические отношения” [2] asarida xalqaro kapital oqimlarining global iqtisodiy integratsiyadagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. J. Madura tomonidan yozilgan “International Financial Management” [3] asarida xalqaro investitsiyalarning moliyaviy mexanizmlari, kapital bozorlarining integratsiyalashuvi va investitsiya risklarini boshqarish masalalari yoritilgan.

“Xalqaro investitsiyalar deganda bir mamlakatning rezidentlari tomonidan boshqa mamlakatning iqtisodiyotiga kiritilgan kapital qo‘yilmalari tushuniladi. Iqtisodiy adabiyotlarda xalqaro investitsiyalar ikki asosiy turga bo‘linadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va portfel investitsiyalari. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar investorga qabul qiluvchi mamlakat korxonasi boshqaruvida ishtirok etish huquqini beradi. Odatda, investorning ustav kapitalida 10 foizdan ortiq ulushi bo‘lsa, bunday investitsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya sifatida tasniflanadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lib, mahalliy iqtisodiyotga real sektor investitsiyalari kiritilishini ta’minlaydi.” [4]

Portfel investitsiyalari esa asosan qimmatli qog‘ozlar bozorida amalga oshiriladi va investorga boshqaruv huquqini bermaydi. Ular qisqa muddatli spekulativ xarakterga ega bo‘lishi mumkin va yuqori likvidlikka ega. Portfel investitsiyalari aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Investitsiya muhiti mamlakatning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini belgilovchi omillar majmuasidan iborat.

Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari zamonaviy jahon iqtisodiyotining ajralmas qismidir. Ular mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi, texnologiya transferini ta’minlaydi va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va portfel investitsiyalarining har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro investitsiyalarni tartibga solish milliy va xalqaro darajada amalga oshiriladi. Investitsiya siyosati xorijiy kapitaldan maksimal foyda olish va milliy iqtisodiyotning strategik manfaatlarini himoya qilish o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi kerak. [5]

O‘zbekiston hozirgi vaqtda 60 dan ortiq davlat bilan ikki tomonlama investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risidagi shartnomalarni imzolagan. Bu xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha kafolatlar yaratadi va investitsiya xavflarini kamaytiradi. Bundan tashqari, mamlakatda bir qator xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki va Islom Taraqqiyot Banki faol ishlamoqda. O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalar oqimi so‘nggi yillarda barqaror o‘shish tendentsiyasini namoyish etmoqda. Investitsiya siyosati xorijiy kapitaldan maksimal foyda olish va milliy iqtisodiyotning strategik manfaatlarini himoya qilish o‘rtasida muvozanatni ta’minlashi kerak. Investitsiya muhitining yaxshilanishi xorijiy investitsiyalar oqimini oshiradi va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshiladi va xorijiy investitsiyalar oqimi barqaror o‘shish tendentsiyasini namoyish etmoqda. Biroq, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, huquqiy tizimni takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish va moliyaviy bozorlarni rivojlantirish bo‘yicha davom etayotgan islohotlar zarur.

1-jadval

O‘zbekistonga kiruvchi xorijiy investitsiyalar (2020-2024 yillar, milliard AQSh dollari) [6]

Yil	Umumiy investitsiyalar	To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar	Portfel investitsiyalari	Boshqa investitsiyalar
2020	4.2	2.8	0.3	1.1
2021	3.8	2.4	0.2	1.2
2022	5.1	3.4	0.5	1.2

2023	6.8	4.6	0.7	1.5
2024	8.2	5.8	0.9	1.5
Dinamika	1.95	2.07	1	1.36

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024 yillar davomida mamlakatga kirgan xorijiy investitsiyalar hajmi bir necha barobar oshdi. Umumiy investitsiyalar 2 barobar oshgan. O‘rtacha umumiy investitsiya o‘shish dinamikasi 95% ni tashkil etgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar umumiy investitsiyalarning asosiy qismini tashkil etib, iqtisodiyotga bo‘lgan ishonch kuchayayotganini ko‘rsatadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 107% ni tashkil etdi, ya’ni barqaror va yuqori o‘shish mavjud. Portfel investitsiyalari 2020 yilda 0,3 mlrd dollardan 2024 yilda 0,9 mlrd dollargacha ko‘paygan. Nisbatan kichik ulushga ega bo‘lsa-da, 5 yil ichida 3 baravar o‘shish kuzatilgan. Bu moliya bozorlarining rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Boshqa investitsiyalar 36% o‘shishni ko‘rsatyapti, boshqa investitsiyalarga nisbatan sekin, biroq barqaror. 2020–2024 yillarda O‘zbekistonga kiruvchi xorijiy investitsiyalar barqaror va tez sur‘atlarda o‘sd. O‘shishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar yetakchi rol o‘ynadi. Portfel investitsiyalarining tez o‘shishi moliyaviy bozorlar jozibadorligi oshayotganini ko‘rsatadi. Ushbu tendensiyalar mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va investitsiya muhitining yaxshilanayotganini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi so‘nggi yillarda barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etib kelmoqda. Xususan, “2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 591,1 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga oshgan. Ushbu natija mamlakatda investitsion faollikning izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Besh yillik davr kesimida tahlil qilinganda, investitsiyalar hajmi 2021-yildagi 236,6 trln so‘mdan 2025-yilda 591,1 trln so‘mga yetib, deyarli 1,8 barobar o‘sgani kuzatiladi” [7]. Bu esa iqtisodiy siyosatning investitsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilganligini tasdiqlaydi.

Investitsiyalar tarkibida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha markazlashmagan mablag‘larning ustunligi kuzatiladi. Jumladan, 2025-yilda markazlashmagan investitsiyalar umumiy hajmning 89,4 foizini tashkil etib, 528,5 trln so‘mga yetgan bo‘lsa, markazlashgan investitsiyalar ulushi atigi 10,6 foizni tashkil etdi. Bu holat xususiy sektor va tashqi kapitalning iqtisodiyotdagi roli ortib borayotganini anglatadi. Xususan, xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar asosiy ulushni egallab, 389,6 trln so‘mni tashkil etgan. Shu bilan birga, korxonalar o‘z mablag‘lari, aholi jamg‘armalari va tijorat banklari kreditlari ham investitsiya manbalarining muhim komponentlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xorijiy investitsiyalar dinamikasi alohida e‘tiborga loyiq bo‘lib, 2025-yilda ularning hajmi 33,5 mlrd AQSH dollariga yetgan. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 146,9 foizga o‘shib, 281,1 trln so‘mni tashkil etgan. Natijada, umumiy investitsiyalar tarkibida xorijiy kapital ulushi 47,5 foizga yetib, mamlakat iqtisodiyotining xalqaro investorlar uchun jozibadorligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa investitsion muhitning liberallasuvi va institutsional islohotlarning samaradorligini aks ettiradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda 2025-yilda kuzatilgan investitsiya jarayonlari barqaror iqtisodiy o‘shish, xususiy sektor faolligining ortishi, xorijiy kapital oqimining kengayishi hamda iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu tendensiyalar mamlakatda qulay investitsion muhit shakllanayotganini va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratilganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida davlatlar iqtisodiy rivojlanishining muhim determinantlaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda investitsion muhit sezilarli darajada yaxshilanib, ayniqsa 2025-yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining 591,1 trln so‘mga yetishi va xorijiy investitsiyalar ulushining 47,5 foizgacha oshishi ushbu jarayonning yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ustunligi iqtisodiyotda texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarning tarmoqlar va hududlar kesimida diversifikatsiyalashuvi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga zamin

yaratmoqda. Ayniqsa, qayta ishlash sanoati, energetika va infratuzilma yo‘nalishlarida investitsiya faolligining ortishi iqtisodiyotning strukturaviy transformatsiyasini jadallashtirmoqda. Biroq, investitsion muhitning yanada takomillashuvi uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq tizimini mustahkamlash, kapital bozorlarini rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, 2025-yil natijalari O‘zbekistonning xalqaro investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha salohiyati sezilarli darajada oshganini va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam asos yaratilganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.06.2025 yildagi “Mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-97-sonli farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7594188>
2. Sharipov N. — "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" (darslik) — Toshkent, 2019-yil 320 sahifa
3. Мировая экономика и международные экономические отношения / Под ред. В.Б. Мантусова, Н.Д. Эриашвили // Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. – 447 с.
4. UNCTAD ning O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi va Markaziy Banki bilan hamkorlikda to‘plangan rasmiy statistikasi asosida muallif tomonidan tuzildi
5. Madura J. — "International Financial Management" — Cengage Learning, 13th edition, 2020

UDK: 338.45

**SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV
МЕХАНИЗMLARIDAN FOYDALANISH IQTIQBOLLARI
(oziq-ovqat sanoati misolida)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕХАНИЗМОВ
УПРАВЛЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ
(на примере пищевой промышленности)**

**PROSPECTS FOR THE USE OF MODERN MANAGEMENT MECHANISMS IN THE
OPERATIONS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES
(The Case of the Food Industry)**

Madaminov Anvar Mamayunusovich

Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Oziq-ovqat sanoati faoliyatini yanada rivojlantirishda oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatiga zamonaviy boshqaruv mexanizmini tatbiq etish hamda uni rivojlantirish, ushbu jarayonda boshqaruvga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish, oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarining qo‘llab-quvvatlash muhim sanaladi. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini zamonaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish hamda uning dolzarbligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshqarish mexanizmi, ta‘sir etuvchi omillar, islohotlar, oziq-ovqat sanoati, zamonaviy boshqaruv, oziq-ovqat importi, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti.

В дальнейшем развитии деятельности пищевой промышленности важное значение имеет внедрение и развитие современного механизма управления деятельностью предприятий пищевой промышленности, изучение факторов, влияющих на управление в этом процессе, модернизация отраслей пищевой промышленности и поддержка предприятий пищевой